

KASB HUNARGA YO'NALTIRISHDA "KASBLAR OLAMIGA SAYOHAT" TRENINGINI O'TKAZISHNING AHAMIYATI.

Bobojonova Muxlisa Qo'ziboyevna

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani 46-maktab psixologi

Qalandarova Zubayda Ro'zmatovna

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani 41-maktab psixologi

Anatotsiya: Ta'lim muassasasida o'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish va to'g'ri kasb tanlashga ko'maklashish, ma'lum bir sohaga qiziqish layoqatini aniqlovchi metodikalar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: kasb hunarga yo'naltirish, qobiliyat, layoqat, qiziqish, kasb, kasb tanlash, trening .

Kasblar olamigaga sayohat treningi 7-8 sinf o'quvchilari uchun sayohat-o'yin tarzida tashkil qilish maqsadga muvofiq. O'yin mobaynida guruhlar o'yin boshlovchisi tomonidan berilgan vazifalarni bajarish orqali har bir kasb stantsiyalarida sovrinli ballarni yig'ib boradilar. Ballar yo'l varaqasiga yozib boriladi va boshlovchi o'z dastxati bilan uni tasdiqlaydi. Jamoa 10-15 kishidan tuziladi. Har bir guruhdan sardor tanlab olinadi, yo'l varaqasi o'yin vaqtida jamoa sardorida bo'ladi. Yo'l varaqasida stantsiya, uning joylashgan yeri, o'tish tartibi ko'rsatilgan. **Maqsadlar:**

- o'smir uchun muhim bo'lgan ma'lumotlar maydonini shakllantirish;
- aqliy faollikni faollashtirish;
- mustaqil tanlov va fikrlashni rivojlantirish;
- turli kasblarga bo'lgan qiziqishni qo'llab-quvvatlash;
- so'z boyligini oshirish;
- guruhda ishlash malakasini shakllantirish.

Stantsiyalar turli xonalar (xoll, yo'laklar) da joylashgan bo'ladi. Barcha stantsiyada har bir guruh bilan tanlov, viktorina, kichik-o'yin o'tkazadigan boshlovchi bo'ladi. **Material va vositalar:** Yo'l varaqalari, Flomasterlar to'plami har bir stantsiya uchun, A3 va A4 formatdagi qog'ozlar, har bir stantsiya uchun vazifalar yozilgan varaqlar + har bir boshlovchi uchun eslatma, vazifalar – "formulali" kartochkalar, qofiyali satrlar bilan kartochkalar, g'oliblarni taqdirlash uchun maqtov yorliqlari. Hazil sovrinlar iloji boricha o'yin stantsiyalarida foydalanilgan soha faoliyati bilan bog'liq bo'lishi kerak. Ishtirokchilar majlislar zali yoki katta xonada to'planadilar. **Boshlovchi.** Bolalar bugun bizlarni g'ayrioddiy bo'lgan Kasblar mamlakatiga olib boruvchi yo'l bo'ylab sayohat-musobaqasi kutmoqda. Sayohat davomida kasblarning turli stantsiyalaridan o'tasiz. Har bir stantsiyada kasb haqida qandaydir yangilik

eshitasiz hamda o‘zingizning mehnat faoliyati haqidagi bilimingizni, tasavvuringizni namoyon etishingiz, tanlov va o‘yinlarda ishtirok etishingiz mumkin. Vazifalarni bajarib borish bilan siz o‘yin oxirida hay’at a’zolari sanab chiqadigan sovrinli ballarni qo‘lga kiritishingiz mumkin. Shu yo‘l bilan qaysi sinf kasblar dunyosi haqida ko‘proq bilimga ega ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Sizning vazifangiz: barcha stantsiyalardan o‘tish, barcha vazifalarni bajarish va yuqori ballarni qo‘lga kiritishdan iborat. Bir stantsiyadan boshqa bir stantsiyaga harakatlanish faqatgina barcha guruh a’zolari qo‘llarini ushlagan holatda amalga oshirilishi mumkin (o‘yinning bu qoidasiga urg‘u berilishi bu guruh bilan do‘stona munosabatda ish olib borishni o‘rgatishdan iboratdir). Barcha faol ishtirok etishi kerak. Qaerga borish kerakligi yo‘l varaqasining ikkinchi ustunida yozilgan. O‘z harakatlaringiz ketma-ketligini chalkashtirib yubormang. Omad!

2. Guruhli qism.

Barcha olib boruvchilar o‘z joylarini egallaydilar. Guruh o‘z yo‘l varaqasida belgilangan 1-stantsiyaga keladi. Boshlovchi bir vaqtning o‘zida guruhlar bilan ishni boshlaydi. Vazifa tugatilganidan so‘ng boshlovchi yo‘l varaqasiga bahoni qo‘yadi. Guruh keyingi stantsiyaga qarab yo‘l oladi.

Boshlovchilar uchun tushuntirish ishi.

Har bir stantsiyada guruhlariga bir necha turdagi topshiriqlar taklif etiladi.

Bir variantda ishtirokchilar aniq belgilangan vaqt davomida (misol uchun, 2 daqiqa) ushbu sohaga taalluqli bo‘lgan kasb yoki mehnat vositalari yoki shartlarni sanab o‘tishadi (maxsus blankalarga yozishadi). Bu vazifa turida har bir to‘g‘ri nomga 1 ball beriladi. Topshiriqning boshqa turi – o‘quvchilar o‘z bilimlarini namoyish etishlari, test savollariga javob berishlari, jamoa uchun masalani yechishlari kerak bo‘lgan intellektual tanlov, viktorinalardan iboratdir. Savolga har bir to‘g‘ri javob uchun 2 ball beriladi. Shu bilan bir qatorda, ba’zi stantsiyalarda boshlovchi o‘yin tanaffusi, keskinlikni yo‘qotish yoki oyoq-qo‘l chigilini yozuvchi kichik-o‘yinlar o‘tkazadi, fikrlash, diqqat va xotirani faollashtiradi.

Ba’zi hollarda o‘yin baholanmaydi, agarda ballar beriladigan bo‘lsa, bu o‘yin stsenariysida alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Boshlovchi bolalar bilan o‘zaro munosabati davomida o‘yin tarzida ma’lumotni o‘quvchilarga yetkazishga harakat qiladi, xatolarni to‘g‘rilaydi. Misol uchun, kasblar ro‘yxatini eshitib borish davomida ularni to‘g‘rilab boradi – bu kasb “bojxonachi” emas, balki “bojxona noziri”, “tish shifokori” emas, balki “stomatolog”, deb ataladi. Shu bilan bir qatorda, ishtirokchilar tomonidan aytilmagan kasblarni, mehnat vositalarini eslatgan holda ro‘yxat (vazifada talab etilganlar) ni to‘ldirib boradi. Xuddi shu vazifani o‘qituvchi ham bajaradi (o‘yinni bu tarzda o‘tkazishni u o‘z guruh komandasini sayohatga jo‘natayotgan vaqtida amalga oshiradi).

Birinchi stantsiya. Osmon bilan bog‘liq kasblar

1-Topshiriq (o‘yin tarzida) “Uchadi – uchmaydi” mashqi. Vazifa baholanmaydi.

Boshlovchi. O‘yin shartlari quyidagicha: Hozir men “uchadi” va “uchmaydi” ma’nolarini anglatuvchi ob’ekt nomlarini aytaman. Agar ushbu ob’ekt yoki jonli organizm uchsa, sizlar qo‘llaringizni ko‘tarasizlar, uchmasa tizzangiz bilan o‘tirasizlar. Shartlar tushunarlimi?

Boshladik!

Samolyot	Kema	Planer	Komod	Stol
Qovog‘ari	Soch o‘rimi	Ari	Bolta	Burgut
Anor	Agat	Ninachi	Ko‘zlar	Pashsha
Pashsha o‘ldirgich	Stul	Begemot	O‘rdak	Tovuq
Vertolyot	Ruchka	Quyvon	Chug‘urchiq	Faner

2-VAZIFA: Har bir aytilgan transport vositasi yoki kasb uchun – 1 ball. **Boshlovchi:** Siz osmonda uchuvchi yoki qachondir uchgan barcha transport vositalari nomini yozib chiqishingiz kerak. Eng qadimgi uchish vositalari ham to‘g‘ri keladi. Har bir transport vositalari nomiga – 1 ball (samolyot, vertolyot, raketa, sun‘iy yo‘ldosh, kosmik kema, dirijabl, playner, havo shari, deltaplan va h.k.). Ha, siz bu sohada haqiqiy mutaxassissiz! Osmon bilan bog‘liq qaysi sohalarni ayta olasiz? Barakalla! Bu sohalar juda mardonavor va olijanobdir!

Ikkinchi stantsiya. Tartib va xavfsizlikni qo‘riqlashga oid kasblar:

1-VAZIFA: 1 ta aytilgan nom uchun – 1 ball. Olib boruvchi. Siz qaysi kasb va mutaxassisliklarni tartib va xavfsizlikni himoya qilish sohasiga kirita olasiz? (militsiya xodimi, YHX xodimi, kriminalist-ekspert, tergovchi, uchastka noziri, tezkor guruh xodimi, soliq inspektori, bojxona xodimi, yo‘l harakatini tartibga soluvchi, o‘t o‘chiruvchi, qorovul, shaxsiy qo‘riqchi va boshqalar).

Uchinchi stantsiya. Gazlama va ip bilan bog‘liq kasblar. 1 ta aytilgan nom uchun – 1 ball

1-VAZIFA (o‘yinli). Igna bilan ip yoki quvnoq arqoncha.

Vazifa baholanmaydi. Maqsad: o‘yin ishtirokchilarining chigalini yozish va faollashtirish. Eng avvalo, boshlovchini tanlash kerak – u igna bo‘ladi. Qolganlar unga qo‘shiladilar. Ishtirokchilar bir qatorga turib olib, bir-birlarining qo‘llaridan qattiq ushlab turishlari kerak. Zanjir (ip) hosil bo‘ladi, uning boshida igna, ya‘ni boshlovchi turadi. Igna barchani o‘ziga jalb etganicha, turli “o‘rama”lar chizgan holda yuguradi. U barchani doira atrofida aylantirishi, kutilmagan burilishlar qilishi, spiralsimon chopishi yoki hamma ipni ishtirokchilarning biriga o‘rashi mumkin – buning hammasi uning fantaziyasi va epchilligiga bog‘liq. Oyog‘ida tura olmagan, muvozanatni yo‘qotgan yoki qo‘llarini ajratib yuborgan o‘yin ishtirokchilari o‘yindan chiqadilar.

Boshlovchi. Biz chiroyli, sovuqdan saqlaydigan kiyim-bosh va oyoq kiyimlarda yurganimiz uchun ushbu sohada mehnat qilayotgan mutaxassis – o‘z kasbining ustalariga, mato va ipni ishlab chiqargan kasb egalariga minnatdorchiligimizni bildirishimiz kerak. Bu kimlar? (Tikuvchi, bichuvchi, poyabzal tikuvchi, oyoq kiyim ustasi, modeler, kiyimlar dizayneri).

To‘rtinchi stantsiya. Transportga oid kasblar. Boshlovchi. Bizning vaqtimizda avtoullov, tramvay va trolleybuslarsiz hech ishimiz bitmaydi. Katta shahar bo‘ylab faqatgina avtoullovda harakatlanish mumkin. Agar boshqa shaharga boradigan bo‘lsak ham avtoullov kerak.

1-VAZIFA:1 ta aytilgan nom uchun – 1 ball. **Boshlovchi.** Transportni boshqarish va unga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq kasblar va mutaxassisliklar qanday nomlanadi? (Haydovchi, jamoat transporti haydovchisi, elektr poezd mashinisti, taksi haydovchisi, avtopoygachi, uchuvchi, treyler haydovchi, aviamekanik, avtochilangar, avtomexanik, avtomashinalarga texnik xizmat ko‘rsatish stantsiya ishchisi va boshqalar). Bularning barchasi oddiy ish emas. Haydovchi mehnatini aniqroq tasavvur qilib ko‘ring. Ba‘zilari o‘rinlaridan turmasdan bir necha soat mobaynida ishlaydilar, shu bilan birga, yo‘lovchilarning sog‘lig‘i va hayoti uchun mas‘uldirlar. Hozirda avtomashinalar juda ko‘p, shuning uchun nafaqat avtomashinani boshqarishni, balki e‘tiborli bo‘lishni ham bilish kerak.

2-VAZIFA (o‘yinli). Kasbni top: **Boshlovchi.** Tasavvur qiling, men “oydan tushganman” va kasblar haqida hech qanday ma‘lumotga ega emasman. Menga kasb o‘zi nima ekanligini tushuntirib berishga harakat qiling (bolalar tomonidan tuzilgan ro‘yxatdagi kasblardan 5 tasini tanlab oling yoki bolalar o‘zlari uchun tushuntirish oson bo‘lgan kasblarni tanlashadi).Baholash boshlovchiga bog‘liq:

Eslatma. Bolalarning yoshi va rivojlanish darajasini inobatga olish zarur. Bolalar guruh bo‘lib ishlar ekanlar, ular “o‘zga sayyoralik”ka u yoki bu kasb ish faoliyati mohiyatini tushuntirib bera olishlari mumkin. Agarda bolalar qiynalib qolishsa olib boruvchi ularga faoliyatning maqsadi, sharoiti, mehnat vositasi, muloqot xarakteri, javobgarlik darajasini, kasb qiyinchiliklarini eslatuvchi savol berishi mumkin.

Beshinchi stantsiya. Shirin (qandolatchilikka oid) kasblar.1-VAZIFA: 1 ta aytilgan nomga – 1 ball. **Boshlovchi.** Siz shirin taomlarni yaxshi ko‘rasizmi? Qaysi kasb va mutaxassisliklarni siz “shirin” deb atay olasiz? Ovqat tayyorlash, dasturxon yasatuvchi, xizmat ko‘rsatish, ovqatlanish jarayonini tashkillashtirish bilan bog‘liq kasblar (non yopuvchi, oshpaz, qandolatchi, ovqat tayyorlash bo‘yicha texnolog, barmen, ofitsiant, restoran menejeri, restorator).

2-VAZIFA:Boshlovchining fikriga ko‘ra eng yuqori darajada – 10 ball bilan baholanadi. Vazifa ijodiy, guruhli bo‘lgani uchun bolalarni ushbu tanlovda yuqori ballar bilan xursand qilishni taklif etamiz.

Ish qurollari: flomasterlar, A3 formatidagi varaqlar.

Boshlovchi. Sizning vazifangiz – barchangiz birgalikda haqiqatda juda shirin ovqat tayyorlash mumkin bo‘ladigan retsept tuzib chiqishingiz, uning tayyorlanish jarayonini yozib ko‘rsatishingiz (masalliqalaridan boshlab) va ushbu taomni chiroyli tarzda chizib berishingiz kerak. Salat tayyorlash ham mumkin. Buning uchun kerakli masalliqalarni oldindan tayyorlab qo‘yish zarur.

Oltinchi stantsiya. Badiiy so‘z ustasi kasbi . Boshlovchi. Ushbu stantsiyada biz kamyob bo‘lgan nasrnavis, mohir san‘at ustasi, shoir singari kasblar hamda hozirda tez-tez uchrab turadigan kasblarni esga olamiz. Yozuvchi bo‘lish uchun (hatto ko‘pchilik bolaligida bu haqida orzu qilgan) nafaqat yaxshi so‘z boyligiga ega bo‘lish, balki o‘z fikrini ravon ifoda eta olish, savodli yozish, juda yaxshi rivojlangan tasavvur va fantaziyaga ega bo‘lish kerak. Buning barchasi hali yetarli emas. ISTE`DODga ega bo‘lish ham zarur.

1-VAZIFA 1 ta aytilgan nomga – 1 ball. **Boshlovchi.** Insondan malakali nutq va boshqa sifat va qobiliyatlarni talab qiladigan yana qanday kasblar bor?

(Jurnalist, siyosatchi, o‘qituvchi, menejer, radio va televideniya boshlovchilari, di-djey, tarjimon, tilshunos va boshqalar.)

Yettinchi stantsiya. Sog‘liqni saqlash va tibbiyot kasbi. Boshlovchi. Siz o‘z sog‘lig‘ingizga nisbatan qanday munosabatdasiz? Uni avaylab-asraysizmi? Salomatlik – inson hayotining asosiy boyliklaridan biridir. “Salomatlikni sotib olib bo‘lmaydi” degan gapni bilasizmi? O‘ylaymanki, insonlarni o‘z salomatliklarini asrash va avaylashga yordam beradigan juda ko‘p sohalar sizga ma‘lum. Biz tibbiyot va salomatlik haqida yodga oladigan birinchi kasb bu ... To‘g‘ri, bu, albatta shifokordir. Siz “shifokor” kasbi turli ixtisosliklarga ega ekanini bilasizmi? Hozircha jim turing, sanab o‘tishning keragi yo‘q. Hozir sizning sinfdoshlaringizning aktyorlik mahoratlari yordamida biz ularni hamda ba‘zi sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq kasblarni ham yodga olamiz va sanab o‘tamiz.

1-VAZIFA. Uyushmalar . Muvaffaqiyatli ko‘rsatgani uchun – 1 ball. Bu o‘yinda ishtirokchilarga o‘zlarini pantomimalar ustalaridek his etishlarini va so‘zlarsiz imo-ishoralar, turli mimikalari yordamida o‘zlarini sog‘liqni saqlash sohasiga tegishli turli kasb va mutaxassisliklarni tasvirlab berishlari taklif etiladi. Guruhdan xohishiga qarab bir nechta ishtirokchi chaqiriladi (bitta odam har doim ishtirok etavermasligi kerak). Qolganlari topishadi.

Okulist	Stomatolog	Otorinolarolog (LOR)	Farmatsevt (aptekachi)
Xirurg	Kardiolog	Fizioterapevt	Sanitar
Pediatr	Rentgenolog	Hamshira	Veterinar

Sakkizinchi stantsiya. Hisob-kitob va formulalar kasbi 1-VAZIFA. Bitta nom uchun – 1 ball. **Boshlovchi.** Siz insondan, kasb tanlayotgan kishidan matematika fanini yaxshi bilishni, sonlar haqidagi ma'lumotlar bilan yaxshi ishlay olishni, formulalar bilan ishlashni, sonlar kombinatsiyasi bilan operatsiya bajarishni va eslab qolishni talab etadigan kasblar haqida ma'lumotga egamisiz? Bu kasb har kuni sonlar bilan ishlaydigan insonlardan diqqatni bir joyga jamlashni va quntini talab etadi. Masalan: Buxgalter, dasturchi, tizim boshqaruvchisi, olim, hisobchi, statistik, moliya menejeri, bank operatori, g'aznachi, sotuvchi, auditor, muhandis, matematik, iqtisodchi, soliq nazoratchisi va shunga o'xshash boshqa kasblar.

Oxirgi bekat. Har bir guruh uchun so'nggi vazifa. Yo'l xaritasi bo'yicha barcha yo'l bosib o'tilganidan so'ng guruh o'z natijalarini topshirish uchun hisoblash hay'ati tomon yo'llanadi. Hisob komissiyasi eshigi oldida ularni so'nggi bekat kutadi. Vazifani hisob komissiyasining vakili yoki alohida boshlovchi beradi. Guruh sardoriga alifbo yozilgan A4 formatdagi varaq beriladi. Guruh o'yin mobaynida olgan bilimlaridan kelib chiqqan holda "Kasblar mamlakati alifbosi"ni tuzib chiqishi kerak.

Vazifa: alifboning har bir harfiga kasb yoki mutaxassislikni yozib chiqish kerak. Har bir yozilgan kasb uchun 1 ball ajratiladi. Hisoblash komissiyasi tuziladi. o'qituvchilar, o'quvchilar, soha vakillari bo'lsa maqsadga muvofiq. Tadbir tugallanganidan so'ng yo'l varaqalari komissiyaga topshiriladi, komissiya a'zolari to'plangan ballarni hisoblaydilar, nominatsiyalar bo'yicha sovrinlarni taqsimlashadi, o'yin natijasini e'lon qiladilar va taqdirlash marosimini o'tkazadilar. Bu albatta o'quvchilarni butun umr esida qoladi. Yoqtirgan kasblari bilan chuqurroq tanishadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-241-sonli qarori.
3. Qodirov B.R., Qodirov I.B. "Kasbiy tashxis metodikalari to'plami" Toshkent, 2003 yil.
4. Qoziev E.Q., Mamedov K.K. "Kasb psixologiyasi" Toshkent 2003 yil
5. Z.Ibodullaev. Tibbiyot psixologiyasi. T., 2008 yil darslik.
6. P.I.Ivanov va M.Zufarova Umumiy psixologiya